



<https://doi.org/10.5281/zenodo.12525198>

### **Hurmuhammad Nurbayev**

*Toshkent islom instituti "Hadis va islom tarixi fanlari" kafedrasi mudiri*  
email.:abunurmuhammad2015@gmail.com

Tel.:+998908104411

### **ANNOTATSIYA**

Imom Abu Iso Termiziy jahon tamadduniga o'zining ma'naviy-ilmiy merosi bilan katta hissa qo'shgan buyuk olimlardan hisoblanadi. Alloma taniqli hofiz imomlardan biri bo'lib, uning ma'naviy merosi musulmonlarga manfaatli bo'lib kelmoqda.

### **ABSTRACT**

Imam Abu Isa Termizi is one of the great scientists who made a great contribution to world civilization with his spiritual and scientific heritage. Allama is one of the famous hafiz imams, whose spiritual heritage is of interest to Muslims.

### **Kalit so'zlar:**

Termiz, Muhammad ibn Iso, Bug'iy, Zaririy, Sulamiy, Sunan, Muhaddis,  
Hofiz, Sunani Termiziy

Movarounnahr diyori qadim-qadimdan bitmas-tuganmas ma'naviy meroslarni o'zida jam etgan. Yer yuzidagi ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan son-sanoqsiz ulamolarni yetishtirgan muqaddas maskan, ilm-ma'rifat beshigi deyish o'rini bo'ladi. Birgina Termiz shahrini misol tariqasida keltirilsa, olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra Termiziy nomi bilan mashhur bo'lgan ulamolar adadi juda ham ko'p ekani shu zaminda istiqomat qilayotgan har bir kishida iftixon hissini uyg'otadi.

Termizlik ulamolar haqida gap ketar ekan birinchi bo'lib Abu Iso Termiziy haqida so'z ochmaslikning iloji yo'q. Shu boisdan u zotning hayoti, ilm tahsil qilish yo'li va qoldirgan boy ilmiy merosi borasida quyida so'z yuritiladi.

Ismi: Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhokdir. U zotning ismiga "Yazid" degan qo'shimchani Mizziy o'zining "Tahzibul kamol" kitobida keltirgan. Biroq, u bu ma'lumotni kimdan olganini keltirmagan. Undan oldin bobolarining ismlarini keltirgan. Shu ma'lumotlar Ibn Kasirning "Bidoya van nihoya" asarida ham mavjud.

Nisbasi: Termiziy, Bug'iy, Zaririy, Sulamiydir. Termiziy deb nisbat berilishi Termiz shahriga nisbatandir. Bug'iy nisbalari esa, Termiz shahridan olti farsax



uzoqlikda joylashgan Bug' (hozirgi Sherobod tumani) qishlog' bo'lib, Imom Termiziy u yerda vafot etib, o'sha joyga dafn etilgani uchun ushbu nom qo'shilgan<sup>48</sup>. Sulamiy nisbasi mashhur arab qabilalaridan bo'lgan Sulaym ibn Mansurga nisbatan berilgan. Sulaym ibn Fahm ibn G'onamga nisbatan emas. Hofiz Yusuf ibn Ahmad Bag'dodiydan naql qilinishicha, allomaning bobolari Marvlik bo'lib, Abu Lays ibn Sayyor davrida Termizga ko'chib kelib qolishgan.

Kunyasi, Abu Iso ekaniga hech kim ixtilof qilmagan.

Tug'ilishi: Imom Termiziy 209/824- yilda tavallud topganlar.

Hofiz Zahabiy "Siyar a'lamin nubalo" asarida U zotni 210/825-yil atrofida tug'ilgan desa, Xalil Sifdiy "Vofiy bil vafoyot" kitobida "ikki yuz nechanchi (o'ngacha bo'lgan sanoqni nazarda tutgan) yilda tug'ilgan", deb aytgan.<sup>49</sup>

Hofiz Ibn Asir "Jome'ul usul" kitobida hijriy 209-yil tug'ilgan deb aytgan. Mazkur ma'lumotni Muhammad ibn Qosim Jassus hamda Sulaymon Jamal o'zlarining "Shamoil"ga yozgan sharhlarida, Muhammad ibn Muhammad Amir "Fihrist"ida, Muhammad Abdulhay Laknaviy Sayyid Sharif Jurjoniyning "Muxtasar"iga yozgan "Zofarul amoniy" nomli sharhida keltirganlar. Manbalarda muhaddis qalamiga mansub asarlar soni aniq qaydlanmagan bo'lsa-da, yigirmaga yaqini zikr qilib o'tilgan. Shunga qaramasdan, ko'pchilik olimlarning fikricha uning hali noma'lum kitoblari ham mavjud. Shubhasiz, "Sunani Termiziy" hadis to'plami Imom Abu Iso Termiziyning shoh asari hisoblanadi. Bu kitob olimning bir umrlik ilmiy safar mashaqqatlarining samarasi bo'lib, uni 270/883-884-yili yozib tugatgan<sup>50</sup>. Muallifning o'zi kitobi haqida bunday degan: "Ushbu kitobni tasnif qilganimdan keyin, uni Hijoz, Iroq va Xuroson ulamolariga taqdim etdim. Ular rozilik bildirib, qabul qildilar. Kimning uyida ushbu kitobdan bo'lsa, o'sha xonadonda xuddi Nabiy (alayhissalom) gapi rayotgandek bo'ladi"<sup>51</sup>.

Muhaddis va uning "Sunani Termiziy" kitobi haqida nafaqat zamonasining, balki bugungi kunn olimlari ham ijobjiy fikrlar bildirmoqda. Jumladan, Hofiz Muhammad ibn Hibbon ibn Ahmad Tamimi Bustiy (vaf. 354/965) o'zining "Kitobus Siqot" nomli asarida Abu Iso Termiziy haqida bunday degan: "Abu Iso Termiziy hadislarni jamlagan, yozgan, yod olgan va zikr qilganlardan biridir"<sup>52</sup>.

Bu haqida mashhur hanafiy olimlaridan Ahmad ibn Mustafo Toshko'prizoda (901-968/1495-1561) o'zining "Miftohus saoda" nomli kitobida bunday degan:

<sup>48</sup> Hofiz Muhammad ibn Hibbon ibn Ahmad Tamimi Bustiy. Kitobus Siqot. – J.IX. – Haydarobod: Doirokul ma'rifa li Umaniya, 1973. – B. 153.

<sup>49</sup> Shihobuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Siyar a'lomin nubalo. – J.XIII. – Bayrut: Muassasatur risola, 1996.– B. 277.

<sup>50</sup> Abu Bakr Muhammad ibn Abdulg'aniy. Kitabut taqyid. – J.I. – Haydarobod: Matbaa majlisid doiratil-usmoniya, 1983. – B. 92.

<sup>51</sup> Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad Zahabiy. Kitob Tazkiratul huffoz. – Bayrut: Dorul kutubil-ilmiya, 1998. – B. 634.

<sup>52</sup> Hofiz Muhammad ibn Hibbon ibn Ahmad Tamimi Bustiy. Kitobu Siqot. – J.IX. – Haydarobod: Doirokul ma'rifa li Umaniya, 1973. – B. 153.



“Buyuk hofiz ulamolardan biri edi. Fiqhda qimmatli asarlari bor. Hadisni bir guruuh muhaddis olimlardan o’rgangan bo’lib, “birinchi tabaqa” shayxlari bilan ko’rishgan. Hadis ilmida ko’pgina kitoblar yozgan. Uning ushbu “Jomi’us sahih” kitobi bu asarlar orasida eng foydalisi, ixcham, tartibli va eng takrori ozidir. Unda boshqa hadis kitoblarida uchramaydigan xususiyatlar ham mavjud. Jumladan, mazhablar va istidlol (dalil keltirish) jihatlari e’tiborga olingan, sahih, hasan va g’arib deb hadis darajalari aniq belgilangan. Bu kitobda jarh va ta’dilga o’rin ajratilgan. Kitob oxirida illatlarga doir maxsus bir bob ilova qilingan. Xullas, bu kitobda ulkan foydalar jamlangandir. Kitobni mutolaa qilgan kishilar bunga tan beradilar”<sup>53</sup>.

Shuningdek, ushbu kitob haqida Hofiz Abul Fazl Maqdisiy quyidagicha bayon etgan: “Hirotda imom Abu Ismoil Ansoriydan eshitdim. U o’z majlisida, Termiziyy va uning kitobi borasida so’z ketganida bunday dedi: “Men uchun uning (Termiziyning) kitobi Buxoriy va Muslim kitoblaridan ko’ra foydaliroq. Chunki, Sahihi Buxoriy va Sahihi Muslimdan faqat mutaxassis olimlargina foydalana oladi. “Sunani Termiziy” dan esa har kim foydalanishi mumkin”<sup>54</sup>.

“Sunani Termiziy” hadis to’plami manbalarda turli nomlar bilan keltirilgan. Jumladan, ulardan quyidagilarni keltirish mumkin:

1. “Jomi”, 2. “Musnadus sahih”, 3. “Sunan”, 4. “Jomi’us sahih”, 5. “Kitabus sahih”, 6. “Musnadul Jomi”, 7. “Jomi’ul Kabir”, 8. “Kitabul Ilalis sag’ir”, 9. “Kitabul Ilalil kabir”.

Imom Abu Iso Termiziyning “Sunani Termiziy” hadis to’plami ishonchlilik darajasidan “Kutubus sitta” tarkibiga kiradi. Lekin, uning tartib bo’yicha nechanchi o’rinda turishi borasida olimlar turli fikrlarni bildirganlar. Yuqorida aytilgani singari, Hoji Xalifa “Kutubus sitta”ning uchinchi kitobi degan.

Asar tarkibida jami 3956 hadis jamlangan bo’lib, ular bir yuz ellik bir kitobga tasniflangan<sup>55</sup>. Lekin, mazkur hadislar miqdorida ba’zi hadislar borasida keltirilgan ikki sanad rivoyati inobatga olinmagan.

Ushbu kitob Payg’ambar (alayhissalom) hayoti haqida ma’lumot beruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham asar doim olimlar diqqat e’tiborida bo’lib kelgan va unga ko’plab sharhlar bitilgan.

Bu asardan Imom Abu Iso Termiziyydan keyin ushbu ilm sohasida faoliyat yutirgan ko’plab yirik olimlar unumli foydalangan. Jumladan, Imom Ahmad ibn

<sup>53</sup> Abulxayr Isomuddin Ahmad ibn Mustoфа ibn Jalil Toshko’prizoda. Miftahus Saoda. – J.II. – Bayrut: Dorl kutubil ilmiya, 1975. – B. 122.

<sup>54</sup> Shihobuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiyy. Siyar a’lomin nubalo. – J.XIII. – Bayrut: Muassasatur risola, 1996. – B. 277.

<sup>55</sup> Ibn Hajar Asqaloniyy.Tahzibu-t-tahzib. – Bayrut, Doru-l- ma’rifa, 1395 h. J.9. – B.389.



Husayn ibn Ali ibn Muso Xurosoniy Bayhaqiy (384-458/994-1066)<sup>56</sup> o'zining "Sunanul kabir" nomli asarida va Imom Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf ibn Muhammad Zayla'iy Hanafiy (vaf. 762/1361) o'zining "Nasbur roya li ahodisil Hidoya" kitobida<sup>57</sup> "Kitabul Ilalil kabir" asaridan foydalanganlar.

Shuningdek, roviylarga tegishli so'z va fikrlarni ham alohida ajratib bergen. Ushbu asar bir necha bor nashr qilingan. Muhaddisning bu asariga ham ko'plab olimlar tomonidan sharhlar yozilgan. Shulardan biri Abdurrahmon ibn Ahmad ibn Rajab Hanbaliy (726-795/1326-1393) qalamiga mansub.

Xulosa qilib aytilganda, Abu Iso Termiziy qalamiga mansub mazkur 15 asar aniqlandi. Shulardan, "Risola fil xilof val jadal", "Kitob fil jarh vat ta'dil", "Kitobul-Mavquf", "U'shariyot", "Kitobul Asmo' val kuno", "Kitobuz Zuhd", "Kitobut Tarix" va "Kitobut Tafsir" kabi asarlari hanuzgacha topilmagan. Shuningdek, "Rubo'iyot fil hadis" va "Kitobus Sulosiyot" singari asarlarining qo'lyozma nusxalari bo'lsada, haligacha ayni shu kitoblar xususida alohida ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan va nashr ham qilinmagan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.1. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasi. -Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. - 632 b.
- 1.2. Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2012. - 672b.
- 1.3. Abu Iso Muhammad Termiziy. Sunani Termiziy. - Toshkent: Sharq, 2012. - 1106 b.
- 1.4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot, Zuhd va raqoqlar. J-9 Toshkent: Sharq, 2012. - 512 b.
- 1.5. Abdulqodir Abdurahim. E'tiqod durdonalari. Bad'ul amoliy sharhi. Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2012. - 528b.
- 1.6. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Toshkent: Sharq, 2008. J 36.
- 1.7. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Xislatli hikmatlar sharhi. - Toshkent: "Hilol Nashr", 2019. - 305b.
- 1.8. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya. Toshkent: Sharq, 2008 - 495b.

<sup>56</sup> Shihobuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Siyar a'lomin nubalo. – J.XVIII. – Bayrut: Muassasatur risola, 1996. – B. 163-171.

<sup>57</sup> Jamoluddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf ibn Muhammad Zayla'iy Hanafiy. Nasbur ra'yva li ahodisil Hidoya. – Bayrut: Muassasatur rayyon, 1997. – B.171.